

Payvandlash elektrodlarining yangi, import o'rnini bosuvchi qoplamlari

O'zR FA Materialshunoslik instituti (rahbar R.Saidov) tomonidan Geologiya va geofizika instituti, Toshkent davlat texnika universiteti va V.L.Galperin nomidagi Toshkent quvur zavodi mutaxassislari ishtirokida "FA-Atex-2018-32" amaliy loyihasi doirasida mahalliy ruda-mineral xom-ashyosi asosida yangi qoplama tarkiblari ishlab chiqildi. Ular konstrukcion po'latlarni payvandlash uchun mo'ljallangan payvandlash elektrodlarini qoplash uchun shixta sifatida ishlatiladi.



Ushbu yangi ishlab chiqilgan qoplamlarning tarkibi Rossiya va Xitoydan (UONI-13/55 va J422) uglerodli va past qotishma po'latlarni payvandlash uchun import qilinadigan asosiy va kislotali turdagi payvandlash elektrodlarini ishlab chiqarishda qo'llash imkonini beradi. Ushbu qoplamlar Toshkent quvur zavodida payvandlash elektrodlarini ishlab chiqarishda qo'llaniladi.

